

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03**

**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUT**

**GAFUROVA DILDORAXON KAMALIDINOVNA**

**GIPOTIREOZDA TUXUMDONLAR YETISHMOVCHILIGINING  
KLINIK-METABOLIK XUSUSIYATLARI VA BASHORATLASHI**

**14.00.03 – Endokrinologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**ANDIJON – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Gafurova Dildoraxon Kamalidinovna**

Gipotireozda tuxumdonlar yetishmovchiligining klinik-metabolik xususiyatlari va bashoratlashi ..... 3

**Гафурова Дилдорахон Камалидиновна**

Клинико-метаболическая характеристика и прогнозирование овариальной недостаточности при гипотиреозе ..... 23

**Gafurova Dildorakhon Kamalidinovna**

Clinical and metabolic characteristics and prognosis of ovarian insufficiency in hypothyroidism ..... 44

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 47

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUT**

**GAFUROVA DILDORAXON KAMALIDINOVNA**

**GIPOTIREOZDA TUXUMDONLAR YETISHMOVCHILIGINING  
KLINIK-METABOLIK XUSUSIYATLARI VA BASHORATLASHI**

**14.00.03 – Endokrinologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**ANDIJON – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Tib.3489 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.adti.uz](http://www.adti.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xalimova Zamira Yusufovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Xalikova Adliya Omanullaevna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Narimova Gulchexra Jumaniyazovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ da Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03 raqamli Ilmiy kengash majlisida o'tkaziladi (170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy; Tel./faks: (+998) 74-223-94-50, e-mail: [info@adti.uz](mailto:info@adti.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy; Tel.: (+998) 74-223-94-50.).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -raqamli tarqatish reestri bayonnomasi).

**Yusupova Sh.Q.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent.

**Nadjmitdinov O.B.**

Ilmiy darajalarni berish bo'yicha ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari  
doktori, dotsent.

**Xujamberdiyev M.A.**

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari  
doktori, professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Butun dunyo miqyosida qalqonsimon bez kasalliklari (QB) muammosi zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu holat ularning keng tarqalganligi, moddalar almashinuvi jarayonlariga sezilarli ta'siri hamda dunyoning ko'plab hududlarida saqlanib qolayotgan tabiiy yod tanqisligi sharoitida yuqori tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Ma'lumki, yod yetishmovchiligi zob endemiyasining shakllanishida yetakchi omillardan biri bo'lib, ayrim mamlakatlarda endemik zobning og'irlik darajasi kutilgan ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'lishi qayd etilgan. Qalqonsimon bez faoliyatining buzilishlari (gipotireoz va gipertireoz) bemorlarning hayot sifatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda, jumladan, yurak-qon tomir asoratlari hisobiga o'lim ko'rsatkichlarining oshishi bilan bog'liqligi aniqlangan.

Jahonda epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, QB kasalliklari deyarli 14% katta yoshdagi ayollarda aniqlanadi va reproduktiv yoshdagi ayollarda eng keng tarqalgan endokrinopatiyalar qatoriga kiradi. E'tiborli jihati shundaki, ayol jinsi QB disfunktsiyasining mustaqil xavf omili sifatida qaraladi, chunki ayollar erkaklarga nisbatan qalqonsimon bez patologiyasi bo'yicha 3-5 barobar ko'proq davolanishga muhtoj bo'ladi. QB kasalliklari rivojlanishining yuqori ehtimolligi aholining alohida guruhlari, xususan, ortiqcha vaznli odamlar va Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi orasida ham qayd etilgan.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish tibbiy yordamni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, surunkali kasalliklar tarqalishini kamaytirish va tibbiy yordam ko'rsatishning turli bosqichlarida ularning oldini olishga qaratilgan murakkab vazifalarni hal etishni nazarda tutadi. Xususan, tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, erta tashxis qo'yish va davolashning zamonaviy usullarini joriy etish, patronaj xizmatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, jumladan, endokrin kasalliklar tarqalishini kamaytirish, ichki sekretsiya bezlari patologiyasini erta aniqlash va davolash chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi O'RQ-528-sonli "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi Qonuni va aholi salomatligini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarga ma'lum darajada mos keladi.<sup>1</sup>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PF-102-son "Endokrinologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish va uning ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Maʼlumki, tireotrop gormon follikulostimullovchi gormon bilan sinergik taʼsir koʻrsatib, granulyoz hujayralar koʻpayishi va follikular rivojlanish jarayonlarini ragʻbatlantiradi. Soʻnggi yillarda gipotireoz va tuxumdon zaxirasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganishga bagʻishlangan bir qator tadqiqotlar eʼlon qilingan. Jumladan, [Hazarika S., Dasari P., Chanu S.M. va boshqalarning 2023] tadqiqotida gipotireoz bilan kasallangan 32 nafar ayol (19%) tekshirilgan, ularning 18 nafarida (27,3%) tuxumdon zaxirasining pasayishi aniqlangan, 14 nafarida (14%) esa normal koʻrsatkichlar qayd etilgan. Aniqlangan farqlar statistik jihatdan ahamiyatli boʻlgan ( $P = 0,034$ ). Shu bilan birga, tekshirilganlarning aksariyatida TTG darajasi 4 dan 10 mME/ml gacha boʻlgan subklinik gipotireoz tashxisi qoʻyilgan.

[Michalakis K.G., Mesen T.B., Brayboy L.M. 2011] tomonidan oʻtkazilgan oldingi tadqiqotda subklinik gipotireoz bilan ogʻrigan ayollarning 18% da FSG  $>14$  ME/l darajasi, antral follikulalar soni  $<5$  yoki tuxumdon stimulyatsiyasiga yetarli darajada javob bermasligi bilan aniqlanadigan tuxumdon zaxirasining pasayishi kuzatilgan, biroq olingan farqlar statistik ahamiyatga ega boʻlmagan. [Polyzos N.P., Sakkas E., Vaiarelli A. va boshqalarning 2015] 4894 nafar ayolni qamrab olgan yirik kogort tadqiqotida normal va pasaygan ovarial zaxira guruhlari oʻrtasida subklinik va manifest gipotireozning tarqalishida sezilarli farqlar aniqlanmagan.

Bir qator tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, gipotireoz tuxumdonlar yetishmovchiligi shakllanishining xavf omili sifatida qaralishi mumkin, ammo namunalarda hajmi cheklanganligi sababli yakuniy xulosalar chiqarish qiyin boʻlib qolmoqda. Xususan, gipotireoz va tuxumdon zaxirasining pasayishi oʻrtasidagi muhim bogʻliqlik [Rao M., Wang H., Zhao S. 2020] ishlarida aniqlangan. Biroq [Kucukler F.K., Gorkem U., Simsek Y. va boshqalar 2018] reproduktiv yoshdagi ayollarda TTG va antimyuller gormoni darajalari oʻrtasida korrelyatsion bogʻliqlikni aniqlamaganlar. Shunday qilib, gipotireozning tuxumdon zaxirasiga taʼsiri munozarali boʻlib qolmoqda va keyingi kompleks oʻrganishni talab etadi.

Qalqonsimon bez funksional holatining fertil yoshdagi ayollarning reproduktiv sohasiga taʼsirini oʻrganish alohida eʼtiborni talab qiladi, chunki millatning demografik kelajagi koʻp jihatdan ayolning reproduktiv salomatligi holatiga bogʻliq. Qalqonsimon bez funksional faolligining pasayishi bir qator bemorlarda ovarial-menstrual disfunktsiyaning rivojlanishi bilan kechadi, bu esa keyinchalik homilador boʻlish va/yoki homiladorlikni koʻtara olish qobiliyatining pasayishiga, psixoemotsional moslashuvning buzilishiga va tugʻilish koʻrsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan ayollarning reproduktiv salomatligini saqlash nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan zamonaviy endokrinologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Oʻzbekiston Respublikasida qalqonsimon bez kasalliklarining epidemiologiyasi, diagnostikasi va davolash masalalari S.I. Ismailov rahbarligida oʻrganilgan, shuningdek, L.B. Nugmanova, N.A. Alimdjanov, M.T. Rashitov, Sh.T.

Muratxodjayeva va boshqa mualliflarning ishlarida o'z aksini topgan. Shu bilan birga, bugungi kunda mahalliy adabiyotlarda ayollarda gipotireoz va tuxumdonlar yetishmovchiligi o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yetarlicha o'rganilmagan, bu esa ushbu patologiyada reproduktiv funksiyaning buzilishi mexanizmlarini chuqurroq o'rganish va uni bashorat qilish usullarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqoti.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonning turli hududlarida yuqumsiz kasalliklarni erta aniqlash, davolash va oldini olishning ilg'or innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish" (2020-2024 yillar) mavzusidagi No012000273 ilmiy loyiha doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi:** fertil yoshdagi ayollarda gipotireoz holatida reproduktiv buzilishlarning klinik-metabolik xususiyatlarini o'rganish va tuxumdon yetishmovchiligi rivojlanishini bashorat qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

subklinik va manifest gipotireoz bilan xastalangan ayollarda reproduktiv buzilishlar spektri va ularning uchrash chastotasini tadqiq etish;

subklinik va manifest gipotireoz bilan xastalangan bemorlarda gormonal gomeostaz holatini (LG, FSG, PRL, AMG, E2, TTG, erkin T4, TPOga qarshi antitanachalar) o'rganish;

gipotireoz bilan xastalangan bemorlarda reproduktiv buzilishlar mavjudligini inobatga olgan holda tuxumdon funksiyasi markerlarini - GDF-9, BMP-15 va AMGni tekshirish;

subklinik va manifest xastalangan ayollarda klinik, gormonal, metabolik ko'rsatkichlar hamda tuxumdon funksiyasi markerlari o'rtasidagi ko'p omilli korrelyatsion tahlilni amalga oshirish;

gipotireoz bilan xastalangan ayollarda reproduktiv buzilishlarni erta tashxislash va bashorat qilish algoritmini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida subklinik va manifest gipotireoz bilan xastalangan 100 nafar fertil yoshdagi ayol hamda nazorat guruhi sifatida 30 nafar shartli ravishda sog'lom ayol olingan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida gormonal tekshiruv usullarini o'tkazish uchun qon zardobi (TTG, PRL, LG, FSG, E2, AMG, erkin tiroksin, tireoperoksidazaga qarshi antitanachalar va boshqa ko'rsatkichlar) hamda tuxumdon funksiyasining markerlari - GDF-9 va BMP-15 olingan.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida umumklinik tekshiruv usullari, laboratoriya tashxisining gormonal usullari, shuningdek endokrin bezlar va kichik chanoq a'zolarini ultratovush yordamida tekshirishni o'z ichiga olgan instrumental tekshiruv usullari qo'llanilgan. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun zamonaviy statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

**Ilmiy yangilik quyidagilardan iborat:**

subklinik va manifest gipotireoz bilan xastalangan bemorlarda tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlari tuxumdonlar yetishmovchiligini bashoratlashda GDF-9 va BMP-15 asosiy markerlari ishtirokida aniqlangan;

subklinik va manifest gipotireoz kasalligining manifest shaklida prolaktin miqdorining ortishi fonida LG, FSG va estradiol miqdorining pasayishi reproduktiv yoshdagi ayollarda gipotireoz gipotalamus-gipofiz-qalqonsimon bez-tuxumdon o'qi disfunktsiyasi bilan kechishi isbotlangan;

GDF-9, BMP-15 va antimyeller gormonining asosiy markyorlarining prognostik ahamiyati gipotireozning turli shakllari bo'lgan ayollarda tuxumdon yetishmovchiligini bashoratlashdagi o'rni isbotlangan;

tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishining xavf omillarini integral baholash algoritmini subklinik va manifest gipotireoz bilan og'rikan fertil yoshdagi ayollarda klinik amaliyotga joriy qilinishining samaradorligi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Subklinik va manifest gipotireoz bor fertil yoshdagi bemorlarda tuxumdon zahirasining informativ ko'rsatkichlari sifatida tuxumdon funksiyasi markerlarining (GDF-9, BMP-15, AMG) roli ko'rsatilgan, bu tuxumdon yetishmovchiligi rivojlanishining yuqori xavfi bo'lgan bemorlarda erta klinik oldi tashxislash va profilaktik davolashni optimallashtirish imkonini beradi.

Subklinik va manifest gipotireoz bilan fertil yoshdagi bemorlarda metabolik buzilishlarning tavsifi berilgan va ularning reproduktiv funktsiya ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Ilk bor subklinik va manifest gipotireozli fertil yoshdagi bemorlarda tuxumdonlar funksiyasi markerlari, gormonal ko'rsatkichlar va vizualizatsiya ma'lumotlarini hisobga olgan holda tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishini erta bashoratlash va olib borish taktikasi algoritmi ishlab chiqilgan.

Qalqonsimon bez autoimmun kasalligi bo'lgan ayollarda tuxumdon zaxirasi parametrlarini baholash zarurati asoslab berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy statistik tahlil usullarining qo'llanilishi bilan tasdiqlangan. Olingan ma'lumotlarning aniqligi matematik ishlov berishning muvofiq usullaridan foydalanish hamda natijalarni xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlar ma'lumotlari bilan qiyoslashga asoslangan. Erishilgan natijalar mahalliy va xorijiy olimlarning ma'lumotlari bilan solishtirilgan bo'lib, dissertatsiya ishining xulosalari va asosiy qoidalari amaliy sog'liqni saqlash tizimiga joriy etilishi orqali o'z tasdig'ini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilk bor subklinik va manifest gipotireozi bo'lgan fertil yoshdagi ayollarda klinik-metabolik ko'rsatkichlar, tuxumdon funksiyasi markerlari (GDF-9, BMP-15, AMG), gormonal ko'rsatkichlar (LG, FSG, PRL, E2, TTG, erkin T4, TPOga qarshi antitanachalar) va vizualizatsiya ma'lumotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar kompleks baholandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa shundaki, ilk bor subklinik va manifest gipotireozi bo'lgan fertil yoshdagi ayollarda tuxumdon funksiyasi markerlari, gormonal ko'rsatkichlar va vizualizatsiya ma'lumotlarini inobatga olgan holda tuxumdon yetishmovchiligi rivojlanish xavfini baholash shkalasi (past, o'rta, yuqori xavf) ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Qalqonsimon bez kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlarni oʻz vaqtida tashxislash boʻyicha olingan natijalar amaliy sogʻliqni saqlash tizimiga joriy etildi:

*birinchi ilmiy yangilik:* subklinik va manifest gipotireoz bilan xastalangan bemorlarda tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlari tuxumdonlar yetishmovchiligini bashoratlashda GDF-9 va BMP-15 asosiy markerlari ishtirokida aniqlangan, Andijon davlat tibbiyot instituti, № 6i-26/u-sonli, 2025-yil 25-martda ishlab chiqilgan «Gipotireoz bilan xastalangan fertil yoshdagi ayollarda reproduktiv buzilishlarni erta aniqlash» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan va bu ikki hududda, xususan, akademik Yo.X. Toʻraqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida (2025-yil 28-martdagi 70-sonli buyruq) hamda Fargʻona filialida (2025-yil 10-maydagi 76-sonli buyruq) amaliyotga tatbiq etildi (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 17.11.2025-yildagi № 29/17, 26-sonli bayonnomasi). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda tuxumdon yetishmovchiligining oldini olish va erta aniqlash boʻyicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* shundaki, ayollarda subklinik va manifest gipotireozni oʻz vaqtida aniqlash va davolashda shifoxonaga yotqizish uchun sarflanadigan mablagʻ sezilarli darajada kamayadi va bemor ambulator sharoitda davolanishi mumkin. Shunday qilib, agar qalqonsimon bez kasalligi bilan ogʻrigan ayollarda kasallikning kechki bosqichida statsionar davolanish 4,5 dan 9,5 million soʻmgacha boʻlsa, ushbu patologiyaning erta bosqichida ambulator davolangan bemorlar uchun 1,5 million soʻmdan kam, yaʼni 3-5 baravar arzon. *Xulosa:* subklinik va manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda tuxumdon yetishmovchiligi rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlarini oʻrganish ushbu patologiya asoratlarining oʻsishini kamaytirishning eng samarali usuli hisoblanadi;

*ikkinchi ilmiy yangilik:* subklinik va manifest gipotireoz kasalligining manifest shaklida prolaktin miqdorining ortishi fonida LG, FSG va estradiol miqdorining pasayishi reproduktiv yoshdagi ayollarda gipotireoz gipotalamus-gipofiz-qalqonsimon bez-tuxumdon oʻqi disfunktsiyasi bilan kechishi isbotlangan boʻlib, Andijon davlat tibbiyot instituti, № 6i-26/u-sonli, 2025-yil 25-martda ishlab chiqilgan «Gipotireoz bilan xastalangan fertil yoshdagi ayollarda reproduktiv buzilishlarni erta aniqlash» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan va bu ikki hududda, xususan, akademik Yo.X. Toʻraqulov nomidagi RIEIATM Namangan filialida (2025-yil 28-martdagi 70-sonli buyruq) va akademik Yo.X. Toʻraqulov nomidagi RIEIATM Fargʻona filialida (2025-yil 10-maydagi 76-sonli buyruq) amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 17.11.2025-yildagi № 29/17, 26-sonli bayonnomasi). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: qalqonsimon bez kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlarda yangi asosiy markerlar - GDF-9, BMP-15 ni joriy etish orqali gormonal gomeostaz koʻrsatkichlari baholandi va uni tuzatishning tegishli samarali yoʻllari taklif etildi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy*

*samaradorligi* shundaki, subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda tuxumdon yetishmovchiligini bashorat qilishda qondagi GDF-9, BMP-15 yangi asosiy markerlarini aniqlashni ishlab chiqish va joriy etish orqali qalqonsimon bez kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarning ahvoli haqida birinchi marta yangi ma’lumotlar olindi. Shunday qilib, GDF-9, BMP-15 ning past ko‘rsatkichlari bo‘lgan bemorlarni davolash uchun 4,5 million so‘mdan 9,5 million so‘mgacha sarflanadi, GDF-9, BMP-15 ning yuqori ko‘rsatkichlari bo‘lgan bemorlar uchun esa 1,5 million so‘mdan kam mablag‘ ketadi, bu 3-5 baravar arzonroqdir. *Xulosa:* subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda tuxumdon yetishmovchiligini bashorat qilishda qondagi yangi asosiy GDF-9, BMP-15 markerlarini aniqlashni ishlab chiqish va joriy etish orqali qalqonsimon bez kasalliklari bo‘lgan reproduktiv yoshdagi bemorlarda hayz davrining buzilishini aniqlashning eng samarali usuli topildi;

*uchinchi ilmiy yangilik:* GDF-9, BMP-15 va antimyuller gormonining asosiy markyorlarining prognostik ahamiyati gipotireozning turli shakllari bo‘lgan ayollarda tuxumdon yetishmovchiligini bashoratlashdagi o‘rni isbotlangan bo‘lib, Andijon davlat tibbiyot instituti, № 6i-26/u-sonli, 2025-yil 25-martda ishlab chiqilgan «Gipotireoz bilan xastalangan fertil yoshdagi ayollarda reproduktiv buzilishlarni erta aniqlash» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan va bu ikki hududda, xususan, akademik Yo.X.To‘raqulov nomidagi RIEIATM Namangan filialida (2025-yil 28-martdagi 70-sonli buyruq) va akademik Yo.X.To‘raqulov nomidagi RIEIATM Farg‘ona filialida (2025-yil 10-maydagi 76-sonli buyruq) amaliyotga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 17.11.2025-yildagi № 29/17, 26-sonli bayonnomasi). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda tuxumdon zaxirasini baholash uchun tadqiqotlar majmuasi qo‘llanildi, natijada klinik, gormonal va ultratovush ko‘rsatkichlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* shundaki, subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda endokrinopatiyalarni samarali tashxislash imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Klinik, gormonal va ultratovush ko‘rsatkichlari buzilgan bemorni statsionarda davolanishi 4,5 million so‘mdan 9 million so‘mgacha bo‘lsa, bunday ko‘rsatkichlari buzilmagan bemorlarni davolash 1,5 million so‘mdan kam, ya’ni 3-5 baravar arzonroq. *Xulosa:* subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda klinik va ultratovush ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili turli xil endokrinopatiyalar rivojlanishining oldini olish va samarali tashxislash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi;

*to‘rtinchi ilmiy yangilik:* tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishining xavf omillarini integral baholash algoritmini subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan fertil yoshdagi ayollarda klinik amaliyotga joriy qilinishining samaradorligi isbotlangan bo‘lib, Andijon davlat tibbiyot instituti, № 6i-26/u-sonli, 2025-yil 25-martda ishlab chiqilgan «Gipotireoz bilan xastalangan fertil yoshdagi ayollarda reproduktiv buzilishlarni erta aniqlash» nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan va bu ikki hududda, xususan, akademik Yo.X.To‘raqulov nomidagi

RIEIATM Namangan filialida (2025-yil 28-martdagi 70-sonli buyruq) va Farg‘ona filialida (2025-yil 10-maydagi 76-sonli buyruq) amaliyotga joriy etildi, (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 17.11.2025-yildagi № 29/17, 26-sonli bayonnomasi). *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagicha: ko‘p omilli tahlil o‘tkazilishi natijasida statistik ma’lumotlarga asoslangan ko‘rsatkichlarning ishonchliligi sezilarli darajada oshdi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* shundaki, mamlakatda reproduktiv yoshdagi ayollarda qalqonsimon bez kasalliklarini aniqlash bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan hayz sikli buzilishlarini bartaraf etish, fertillikni oshirish va noxush prognozli tugunli hosilalarni erta tashxislash imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Qalqonsimon bezning manifest gipotireozi bilan og‘rigan bemorni statsionar davolash 4,5 dan 9 million so‘mgacha bo‘lsa, subklinik gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarni ambulator sharoitda davolash 1,5 million so‘mdan kam, ya’ni 3-5 baravar arzonroq. *Xulosa*: Subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan ayollarda tuxumdonlar yetishmovchiligi rivojlanishining xavf omillarini matematik hisoblash yo‘li bilan ishlab chiqilgan shkala va algoritmi kompleks baholash kasallikning erta bosqichida to‘g‘ri tashxis qo‘yish samaradorligi va o‘z vaqtidaligini oshirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va sinovdan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining nashr etilganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 5 tasi jurnal maqolalari bo‘lib, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya 109 bet matndan iborat bo‘lib, kirish, adabiyotlar sharhi, "Tadqiqot materiallari va usullari" boblari, o‘z olingan natijalarga bag‘ishlangan 2 bob, xulosa, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruratiga asoslanib, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, dissertatsiyaning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan ma’lumotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning sog‘liqni saqlash amaliy

otiga joriy etilishi ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi**" deb nomlangan I bobida subklinik va manifest gipotireoz bilan fertil yoshdagi ayollarda reproduktiv buzilishlarning etiopatogenezi haqidagi zamonaviy qarashlar ko‘rib chiqilgan, ushbu patologiyada

reproduktiv buzilishlarning turli shakllarining klinik xususiyatlari tavsiflangan. Subklinik va manifest gipotireoz bilan og‘rigan bemorlarda reproduktiv buzilishlar mavjudligini, shuningdek, qalqonsimon bez funksiyasining metabolik buzilishlar bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda tuxumdon funksiyasi markerlari - GDF-9, BMP-15 va antimyeller gormonining roliga alohida e‘tibor qaratilgan. Keltirilgan ma‘lumotlar ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy asoslanganligini ta‘kidlaydi.

"**Klinik materialning tavsifi va tadqiqot usullari**" deb nomlangan II bobda tekshirilgan bemorlarning batafsil tavsifi va qo‘llanilgan tadqiqot usullari keltirilgan. Reprodukativ yoshdagi (18-49 yosh) 100 nafar ayolni tekshirish natijalari tahlil qilingan, ular ikkita asosiy guruhga bo‘lingan:

birinchi guruh - subklinik gipotireoz bilan kasallangan 50 nafar ayol;

ikkinchi guruh - manifest gipotireoz bilan kasallangan 50 nafar ayol.

Nazorat guruhini 30 nafar amaliy sog‘lom ayollar tashkil etgan.

Reprodukativ funksiyasi buzilgan bemorlarni konsultativ qabul qilish va tekshirish akademik Yo.X.To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon filialining klinik bazalarida (tireoidologiya bo‘limi, poliklinika), shuningdek, Andijon shahar markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikasida o‘tkazilgan.

1-jadvalda tekshirilgan bemorlarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan. Ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayollarning aksariyati 18 yoshdan 39 yoshgacha bo‘lgan: subklinik gipotireoz guruhida 39 (78,0%) bemor va manifest gipotireoz guruhida 44 (88,0%) bemor, bu yosh va mehnatga layoqatli yoshga to‘g‘ri keladi.

**1-jadval.**

**Bemorlarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi (n=100)**


Yosh guruhi	Subklinik gipotireoz (n = 50)	Manifest gipotireoz (n = 50)	Nazorat (n = 30)	Jami
18–29 yosh	11 (22,0%)	20 (40,0%)	10 (33,3%)	41
30–39 yosh	28 (56,0%)	22 (44,0%)	12 (40,0%)	62
40–49 yosh	11 (22,0%)	8 (16,0%)	8 (26,7%)	27
<b>Jami</b>	50 (100%)	50 (100%)	30 (100%)	130

**Izoh:** Yosh bo‘yicha guruhlar orasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $\chi^2 = 4,32$ ;  $df = 4$ ;  $p = 0,364$ ; Fisherning aniq testi  $p = 0,374$ ). Kramer V ko‘rsatkichi 0,129 ga teng bo‘lib, bu aloqaning kuchsizligini anglatadi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari: 18 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan, gipotireoz tashxisi qo‘yilgan qizlar va ayollar.

Istisno mezonlari: homiladorlik va emizish, menopauza, so‘nggi 2 oy ichida reproduktiv va metabolik funktsiyaga ta‘sir qiluvchi gormonal dorilarni qabul qilish, gipotalamik sindromi, tug‘ma buyrak usti bezi po‘stlog‘i disfunktsiyasi, tuxumdonlarning polikistoz sindromi, qandli diabet, yurak yetishmovchiligi, gisterektomiya va ovarioektomiya, gipofiz o‘smalari, bolalar va o‘smirlar, erkaklar.

1-rasmda tadqiqot dizayni ko‘rsatilgan.



**1-rasm Tadqiqot dizayni**

Barcha 100 nafar bemor va nazorat guruhidagi ayollarda qonning umumklinik va gormonal tekshiruvlari "Zam-Zam med-servis" MCHJ (Andijon shahri)da 2023-yil 12-apreldagi 14-sonli shartnoma asosida o'tkazildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar (yosh, AMG, FSG, LG, estradiol, prolaktin va TTG darajalari) o'rtacha qiymatlar va standart og'ish yordamida tahlil qilindi. Uzluksiz o'zgaruvchilarni taqqoslash uchun Styudentning juft bo'lmagan t-mezone qo'llanildi,  $p < 0,05$  bo'lganda farqlar statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi. Kategorial o'zgaruvchilarni taqqoslash uchun  $\chi^2$  mezone va Fisherning aniq mezonidan foydalanildi. Xavf omillari va tuxumdon zaxirasining pasayishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun logistik regression tahlil qo'llanildi.

III bobda "**Subklinik va manifest gipotireoz bilan og'rgan bemorlarning klinik, gormonal va instrumental ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi**" keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq, yosh, kasallikning davomiyligi va tana vazni indeksini hisobga olgan holda, fertil yoshdagi ayollarda subklinik va manifest gipotireoz bilan klinik-demografik va gormonal ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi.

Aksariyat klinik shikoyatlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan statistik ahamiyatli farqlar aniqlandi ( $p < 0,001$ ;  $p < 0,005$ ;  $p < 0,033$ ). Tez charchash eng ko'p qayd etilgan - subklinik gipotireoz bilan og'rgan 39 (78,0%) bemorda va manifest gipotireoz bilan og'rgan 40 (80,0%) bemorda kuzatildi. Ikkinchi o'rinda terining quruqligi va dag'allashuvi (mos ravishda 58,0% va 66,0%), shuningdek, hayz davrining buzilishi (58,0% va 72,0%) qayd etildi. Uchinchi o'rinda soch to'kilishi va mo'rtlashuvi - subklinik gipotireozda 56,0% va manifest gipotireozda 100% holatlarda kuzatildi. Tana vaznining ortishi mos ravishda 52,0% va 80,0% bemorlarda, uyquchanlik esa 38,0% va 64,0% bemorlarda qayd etildi.

Tana vazni indeksi va bel aylanasi ko'rsatkichlarida sezilarli farqlar aniqlandi. Subklinik gipotireozda TVI darajasi 26,1 kg/m<sup>2</sup> ni tashkil etdi, manifest gipotireozda esa - 28,6 kg/m<sup>2</sup> bo'ldi. Subklinik gipotireoz bilan og'rgan bemorlarda bel aylanasi 83,6 sm, manifest gipotireozda esa 91,6 sm ni tashkil etdi.

Keyinchalik hayz sikli buzilishining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi (2-jadval).

## 2-jadval

### Tadqiqot guruhlarida bemorlarida hayz sikli buzilishlarining xususiyatlari

Belgi	SG (n=50)	MG (n=50)	Nazorat (n=30)	$\chi^2$	P qiymati	Kramer V
Siklning buzilishi: muntazamlilik	29 (58,0%) nomuntazam	36 (72,0%) nomuntazam	0 (0,0%)	41,0	<0,001	0,561
Oligomenoreya	13 (26,0%)	18 (36,0%)	0 (0,0%)	13,6	0,001	0,323
Opsomenoreya	12 (24,0%)	17 (34,0%)	0 (0,0%)	12,6	0,002	0,312
Gipomenoreya	11 (22,0%)	9 (18,0%)	2 (6,7%)	3,20	0,202	0,157
Menorragiya	5 (10,0%)	5 (10,0%)	0 (0,0%)	3,25	0,197	0,158
Polimenoreya	6 (12,0%)	0 (0,0%)	3 (10,0%)	—	1,000 (F)	—
Gipermenoreya	0 (0%)	50 (100%)	0 (0%)	—	1,000	—
Metrorragiya	7 (14%)	6 (12%)	0 (0%)	—	1,000	—


Izoh: (F-Fisher), HSB – hayz siklining buzilishi, SG – subklinik gipotireoz, MG – manifest gipotireoz

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, manifest gipotireozda hayz siklining buzilishlari subklinik shaklga qaraganda ancha ko'proq uchraydi.

Subklinik gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda polimenoreya, manifest gipotireozda esa gipermenoreya koʻproq kuzatilgan. Olingan natijalar, ayniqsa gipotireozning manifest shaklida, tuxumdonlar gormonal faoliyatining sezilarli darajada buzilganligidan dalolat beradi. Bu esa keyingi gormonal va instrumental tekshiruvlar oʻtkazish zarurligini koʻrsatdi.

### Tireoid va tuxumdon holatini baholash.


Subklinik gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarning 28 foizida TTG darajasi meʼyoriy koʻrsatkichlarga mos kelgan boʻlsa, 72 foizida uning oʻrtacha darajada oshganligi aniqlandi. Manifest gipotireoz bilan ogʻrigan barcha bemorlarda esa TTG darajasining sezilarli darajada oshganligi kuzatildi (2-rasm).



**2-rasm. Qalqonsimon bez gormonlari miqdori**

Izoh: \* farqlar nazorat guruhiga nisbatan ishonchli (p<0,001).

Tekshirilgan bemorlar guruhida birlamchi gipotireoz kuzatilgan boʻlib, u funksional giperprolaktinemiya va ikkilamchi gipogonadizm bilan birgalikda namoyon boʻlgan. Bu holatlar kasallikning manifest shaklida yaqqolroq namoyon boʻlgan (3-rasm).



**3-rasm. Reproduktiv tizim gormonlarining miqdori**

\* farqlar nazorat guruhiga nisbatan ishonchli (p<0,001).

Ikkala guruhda ham estradiolning past darajasi fonida LG va FSG darajasining sezilarli darajada pasayishi aniqlandi ( $p < 0,001$ ), bunda estradiolning pasayishi manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda aniqroq edi.

### Qalqonsimon bez va tuxumdonlarning ultratovush tavsifi.

3-jadval.

#### Qalqonsimon bezning ultratovush tekshiruvi koʻrsatkichlari

Koʻrsatkich	SG (n=50)	MG (n=50)	Nazorat (n=30)	$\chi^2$	P(Kruskal-Wallis)	Muhim farqlar (Dann, $p < 0.05$ , Bonferoni)
Qalqonsimon bez boʻlaklarining umumiy hajmi, $\text{sm}^3$	$13.0 \pm 1.66$	$15.5 \pm 5.61$	$11.6 \pm 1.24$	18.27	$< 0.001$	1 vs 3, 2 vs 3
Qalqonsimon bez boʻyinchasi, mm	$2.65 \pm 0.227$	$3.67 \pm 1.24$	$2.78 \pm 0.291$	16.12	$< 0.001$	1 vs 2

Olingan maʼlumotlar subklinik va manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda qalqonsimon bez hajmining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshganligini koʻrsatadi, bu qalqonsimon toʻqima giperplaziyasini koʻrsatadi.

4-jadval.

#### Qalqonsimon bezning tugunli hosilalarini aniqlash chastotasi

SG (n=50)	MG (n=50)	Nazorat (n=30)	$\chi^2$	P qiymati	Kramer V
7 (14%)	18 (36%)	0 (0%)	17.1	$< 0.001$	0.362

Qalqonsimon bezning tugunli hosilalari manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda sezilarli darajada tez-tez aniqlandi, bu qalqonsimon bez toʻqimalarining yanada aniq va uzoq muddatli shikastlanishini aks ettiradi va bilvosita tuxumdon zaxirasining pasayishiga yordam berishi mumkin.

Hayz siklining 14-kunida oʻtkazilgan tuxumdonlar ultratovush tekshiruvi maʼlumotlarini tahlil qilish natijasida, subklinik va manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda ikkala tuxumdonning hajmi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada past boʻlganligi aniqlandi, bunda eng aniq oʻzgarishlar kasallikning manifest shaklida aniqlandi.

Shunday qilib, oʻtkazilgan gormonal va instrumental tekshiruvlar shuni koʻrsatdiki, manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda oʻzgarishlar koʻproq namoyon boʻladi, bu uning fertil yoshdagi ayollarning reproduktiv funksiyasiga salbiy taʼsirini tasdiqlaydi.

### IV bob. GDF-9, BMP-15, AMG tuxumdon funksiyasi koʻrsatkichlarini baholash va ularning gipotireozda tuxumdon yetishmovchiligini bashorat qilishdagi oʻrni.

Subklinik va manifest gipotireoz bilan ogʻrigan bemorlarda GDF-9, BMP-15 va AMG ovarial funktsiya markerlarini baholash natijalari. Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq ravishda klinik guruhlardagi bemorlarda tuxumdon funksiyasi

